ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

Abrorova Dildora Anvar qizi

Qarshi xalqaro universiteti

Maktabgacha ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi

MAKTABGACHA YOSHGADI BOLALARDA NUTQ RIVOJLANISH MUAMMOLARI VA ULARNI BARTARAF ETISH YO'LLARI

Annotatsiya

Mazkur maqola maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishida psixologik va pedagogik xususiyatlari,bolalarda nutq kechikishining asosiy sabablari hamda ularni bartaraf etishning samarali usullari ilmiy tahlil qilinadi.Nutq rivojlanishining yoshga xos xususiyatlari,nutq nuqsonlarining turlari, oilaviy ijtimoiyomillarning ta'siri yoritiladi.Shuningdek ,maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish bo'yicha samarali metod va texnologiyalar tavsiya etiladi.Yanada muhim mavzu tarbiyachi va ota-onalar hamkorligining ahamiyati yoritiladi.

Kalit so'zlar

nutq rivojlanishi,maktabgacha yosh, nutq kechikishi,pedagogik yordam, kommunikativ kompetensiya, logopedik mashg'ulot, hamkorlik, nutq nuqsonlari.

Abstract

This article scientifically analyzes the psychological and pedagogical features of speech development in preschool children, the main causes of speech delay in children, and effective methods for their elimination. Age-specific features of speech development, types of speech defects, and the influence of family social factors are highlighted. Also, effective methods and technologies for speech development in preschool educational organizations are recommended.Another important topic is the importance of teacher and parent cooperation.

Keyword

speech development,preschool age,speech delay,pedagogical assistance, communicative competence, speech therapy, cooperation, speech defects.

Аннотация.

В данной статье научно анализируются психолого-педагогические особенности развития речи у детей дошкольного возраста, основные причины задержки речи у детей и эффэктивные методы их устранения. Выделены возрастные особенности развития речи, типы речевых дефектов и влияние семейных социальных факторов. Также рекомендованы эффективные методы и технологии развития речи в дошкольных образовательных организациях. Еще одна важная тема-важность сотрудничества педагога и родителей.

Ключевые слова

развитие речи, дошкольный возраст, задержка речи, педагогическая помощь, коммуникативная компетентность, логопед, сотрудничество, речевые дефекты.

KIRISH

Bugungi kunda maktabgacha ta’lim tizimida bolalarning har tomomlama rivojlanishi, ayniqsa nutqiy rivojlanishi muhim va dolzarb masalalaridan biridir. Nutq-bu bolaning tafakkuri, ijtimoiylashuvi va shaxs sifatida shakllanishining asosiy vositasidir. Maktabgacha yosh davri bola shakllanishining eng muhim fundamental bosqichi hisoblanadi. O’z navbatida shaxs sifatida va barkamol kamol topishida ham muhim bosqichdir. Nutq rivojlanishi esa bolaning tafakkuri,kattalar va tengdoshlari bilan muloqoti va ijtimoiylashishida asosiy o’rin egallaydi. Hozirgi davrga kelib esa bolalarda nutq kechikishi, tovushlarni noto’g’ri talaffuz qilish, lug’at boyligining yetarli emasligi kabi muammolar kundan kunga ko’payib bormoqda. Bu esa kelajakda maktab ta’limida qiyinchiliklarga olib keladi. Yuqoridagi masalalar esa buni dolzarb pedagogik muammo sifatida o’rganishni talab etadi.

Nutq rivojlanish muammolarini aniqlash va ularni bartaraf etishning samarali pedagogik yo’llarini ishlab chiqishdan iborat.

Nutq rivojlanishi bolaning biologik va ijtimoiy rivojlanishi bilan chambarchas bog’liq. L.S.Vigotskiy nutqni tafakkur bilan uzviy bog’liq jarayon sifatida Maqolaning maqsadi-maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq ko’rsatadi. Unga ko’ra, nutq-bu ijtimoiy tajriba asosida shakllanadigan psixik jarayondir. A.N.Leontyev nutqni faoliyatning muhim tarkibiy qismi sifatida talqin etadi. Nutqning rivojlanishi faol muloqot jarayonida yuz beradi. Psixolog va pedagogog olimlarning ta’kidlashicha, nutq ijtimoiy muhit ta’sirida shakllanadi. Yani bolani o’rab turgan atrof muhit va insonlar oilasi, maktabgacha ta’lim tashkiloti, mahalla, do’stlari va hokazo.

Nutq rivojlanishi bir necha bosqichda amalga oshib boradi.

1. Boshlang’ich bosqich; 0-1 yoshda kattalar nutqiga javob reaksiya va tovushlarga javob berish, tovushlar chiqarish.

2. Ilk so’zlar bosqichi; 1-2 yoshda soda so’zlarni aytish va lug’at boyligining oshishi.

3. Faol nutq bosqichi; 2-3 yoshda oddiy gaplar tuzish, yangi so’zlar ko’payishi, ko’plab savollarning paydo bo’lishi.

4. Maktabgacha yosh davri; 3-7 yoshda grammatik jihatdan to’g’ri va bog’langan nutq shakllanishi, o’z fikrlarini nutq yordamida bildira olish.

Nutq rivojlanish muammolarining asosiy sabablari.

Hozirgi davrga kelib nutq rivojlanishida ko’plab muammolarni ko’rishimiz mumkin. Muammolar va ularning sabablarini ko’rib chiqsak. Bulardan eng dolzarb va ko’p uchrayotganlari nutqning kechikishi, lug’at boyligining kamligi, tovushlarni to’g’ri talaffuz qila olmaslik, so’zlarni bir –biriga bog’lagan holda gapira olmaslik, harflarning o’rnini almashtirib talaffuz qilish kabilar kuzatishimiz mumkin.

Bu muammolarning asosiy sabablari; Oilada muloqotning yetarli emasligi, telefonlardan haddan tashqari ko'p foydalanish, ijtimoiy muhitning cheklanganligi, noto'g'ri pedagogik yondashuvlar va psixologik yoki fiziologik omillardir.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq muammolari turli xil omillar ta'sirida ham yuzaga keladi ya'ni;

1; Biologik omillar

-Homiladorlik davridagi asoratlar

-Nevrologik buzilishlar

-Eshitish qobiliyatining pasayishi

2; Ijtimoiy omillar

-Oilada muloqotning kamligi

-Gadjetlardan ortiqcha va tartibsiz foydalanish

-Kattalar va tengdoshlarining bola bilan suhbatining kamligi.

3; Pedagogik omillar

-MTTda nutq rivojlantirish ishlarining yo'qligi yoki kamligi

-Individual yondashuvning yo'qligi.

Nutq nuqsonlarining turlari.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan asosiy nutq buzilishlari;

-Dislaliya-tovush talaffuzi buzilishi..

-Alaliya-nutqning umuman rivojlanmasligi

-Dizartriya-nutq apparati harakatining buzilishi

-Duduqlanish.

Nutq muammolarini bartaraf etish yo'llari. Har bir nutq nuqsoni o'z vaqtida aniqlanmasa, maktab yoshida o'qish va yozish jarayoniga salbiy ta'sir qiladi.

Nutq rivojlanish muammolarini bartaraf etishda quyidagilar muhim hisoblanadi;

1. Oilaviy muhitni tartibga solish va faollashtirish

-bola bilan har kuni kamida 1 soat suhbatlashish

-ertak o'qib uni og'zaki tahlil qilish

ISSN: 2181-4341, IMPACT FACTOR (RESEARCH BIB) – 9.145, SJIF – 5,431

-savol-javoblar tashkil qilish.

Bular bola nutqini qanday yaxshilaydi ;

- Bola yangi so'zlarni eshitadi va lug'at boyligi kengayib boradi. - To'g'ri gap tuzishni o'rganadi

- O'z fikrini erkin bayon qilish ko'nikmasi shakllanadi.

– Ijtimoiy nutq faolligi ortadi. Jonli muloqot bolaning nutq markazlarini faol ishlashiga yordam beradi. Bu esa nutqning tabiiy va rivojlanishiga xizmat qiladi.

2. MTT da nutqni rivojlantirish usullari va metodlari

-didaktik o'yinlar

-syujetli rolli o'yinlar

-she'r yodlash

-hikoya tuzish.

Bular bola nutqini qanday yaxshulashi mumkin ; - Lug'at boyligi oshadi, dialogik nutq rivojlanadi, grammatik jihatdan to'g'ri gap tuzish shakllanadi, bog'langan nutq mustahkamlanadi, ijodiy fikrlash va tasavvur kuchayadi. O'yin jarayonida bola erkin va majburlovsiz gapiradi. Bu esa nutqiy faollikni tabiiy ravishda oshiradi va ichki qo'rquvni kamaytiradi.

3.Logopedik mashg'ulotlar

-artikulyatsion gimnastika

-nafas mashqlari

-tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish.

Artikulyatsion mashqlar til, lab jag' mushaklarini mustahkamlaydi . Nafas mashqlari esa to'g'ri nutqiy nafasni shakllantiradi . Tovushlarni to'g'ri qo'yish va mustahkamlash mashqlari muntazam olib boriladi .

Bular bolani nutqini qanday yaxshilaydi ; Tovushlar to'g'ri talaffuz qilinadi , nutq ravonlashadi, duduqlanish kamayadi, artikulyatsion apparat mustahkamlanadi , fonetik nuqsonlarni bartaraf etishda yordam beradi .

4.Innovatsion texnologiyalar

-interaktiv metodlar

-STEAM yondashuv (Sciense- tabiiy fanlar, Technology- texnologiyalar, Engineering – texnik ijodkorlik, Art- san'at va ijod, Mathematics- matematika).

-rivojlantiruvchi markazlar .

Bolalarning telefon , planshet va televizor qarshisida o'tkazadigan vaqtini me'yorlashtirish hamda jonli suhbat , kitib o'qish va birgalikdagi faoliyatni ko'paytirish. Bu bolaning nutqini qanday yaxshilashi mumkin ; Passiv eshitish o'rniga faol nutq shakllanadi,muloqot ko'nikmalari rivojlanadi , so'z boyligi oshadi , tafakkur va tahlil qilish qobiliyati kuchayadi , ijtimoiy moslashuv yaxshilanadi. Jonli muloqot jarayonida bola savol beradi , javob qaytaradi va fikr almashadi . Bu esa nutq rivojlanishining asosiy omili hisoblanadi . Yuqoridagi tavsuyalar kompleks qo'llanilganda maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi sezilarli darajada yaxshilanadi . Eng muhim omil –tizimlilik va hamkorlikdir . Ota-ona , tarbiyachi va logoped birgalikda ishlagan taqdirdagina barqaror natijaga erishish mumkin bo'ladi.

Amaliy tavsiyalar

-har kuni 10-15 daqiqa nutq bilan bog'liq mashg'ulotlar o'tkazish

-bolani erkin fikr bildirishga undash

-logoped bilan hamkorlik qilish

-ertaklar va badiiy adabiyot bilan tanishtirib borish

-gadjetlar bilan ishlash vaqtini nazoratga olish.

Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini yanada rivojlantirish uchun ko'proq ham suhbat bo'lish , uni fikrini har sohada so'rasg va o'zi mustaqil qarorlar qabul qilishiga qo'yib berishimiz kerak. Bola qancha uning qarorlari muhimligini, kimdir uning fikrini bilishga qiziqayotganini bilgan holda ko'proq ichidagi fikrlarini aytishga harakat qiladi va bu jarayonda uning nutqi ham rivojlanib boradi. Bu bolada gaplar ketma-ketligini to'g'ri ishlatishida va o'zaro so'zlarni bog'lashiga ham muhim asos bo'la oladi desak hech mubolag'a bo'lmaydi.

XULOSA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanishi ularning umumiy psixik, intellektual va ijtimoiy rivojlanishining muhim va asosiy ko'rsatkichi hisoblanadi. Nutq bola tafakkuri, muloqot madaniyati, atrof- muhitni idrok etishi hamda shaxs sifatida shakllanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu bois nutq rivojlanishidagi har qanday kechikish yoki nuqson kelajakda bolaning maktab ta'limiga moslashuvi, savodli bo'lishi va tengdoshlari bilan muloqotida muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Oilada jonli muloqotning kamligi,gadjetlardan ortiqcha foydalanish, individual yondashuvning yetishmasligi kabi omillar bolalarning nutqiy faolligini pasaytiradi. Natijada lug'at boyligi sust shakllanadi, tovush talaffuzida xatolar kuzatiladi va bog'langan nutq rivoji orqada qoladi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida nutqni rivojlantirish ishlari reja asosida, yosh va individual xususiyatlarni inobatga olgan holda tashkil etilishi lozim. Didaktik o'yinlar,syujetli rolli o'yinlar, hikoya tuzish mashqlari. she'r yodlash va suhbat metodlari bolalarda nutqiy faollikni oshirishda samarali vosita hisoblanadi.

Bundan tashqari, logopedik yordamning o'z vaqtida ko'rsatilishi nutq nuqsonlarini bartaraf etishda muhim rol o'ynaydi. Ota-onalar, tarbiyachilar va mutaxassislar o'rtasidagi hamkorlik esa jarayon samaradorligini yanada oshiradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda nutq rivojlanish muammolari bugungi kundagi eng dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki nutq bolaning shaxs sifatida shakllanishining asosidir. Bolaning keying hayotida ham, faoliytida ham nutq asosiy va fundamental bosqich hisoblanadi. Nutq muammolarini erta aniqlash va kompleks yondashuv asosida bartaraf etish muhimdir.

Oilaviy muhit, pedagogik jarayon va logopedik yordam uyg'unlashgandagina samarali natijaga erishish mumkin. Nutqi ravon, fikrini erkin bayon eta oladigan bola esa kelajakda muvaffaqiyatli ta'lim olishi va jamiyatimizda faol o'rin egallashi uchun mustahkam poydevorga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi. „Ilk qadam'' davlat o'quv dasturi/takomillashtirilgan ikkinchi nashr-Toshkent 2022 yil.

2. Vigotskiy L.S. „ Nutq va tafakkur ''- Moskva; Pedagogika-1934 yil

3. Leontyev A.N „ Faoliyat , ong , shaxs ''-Moskva -1975 yil

4. Qodirova F.R „ Maktabgacha pedagogika ''-Toshkent;Tafakkur-2019 yil

5. Elkonin D.B „ Bola psixologiyasi '' Moskva-1978 yil

6 .Usmonova M „Bolalar nutqini rivojlantirish metodikasi '' Toshkent; Fan va texnologiya 2014 yil

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3261-son qarori. Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida.-Toshkent, 2017 yil.

8. O'zbekiston respublikasi Maktabgacha ta'lim konsepsiyasi. Toshkent 2017 yil

9. Karimova V „ Pedagogik psixologiya '' Toshkent 2017 yil.